

BO'LAJAK PEDAGOGLARDA NOSTANDART YONDASHUVLAR ASOSIDA PEDAGOGIK YANGILIKLARNI LOYIHALASH VA HAYOTGA TATBIQ ETISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Ramazonova Salomat Saidovna

Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchi-doktaranti

Annotatsiya: Maqlada bo'lajak pedagoglarni nostandart yondashuv asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash texnologiyalari, innovatsion kasbiy faoliyatini takomillashtirish, ta'lif sohasidagi yangicha yondashuvlar, ta'limiy innovatsiya va ta'lim jarayonini yangilash g'oyalarining mavjud shakl va vositalari, ta'limdagi innovatsiyalar va innovatsion ta'limiy faoliyat, pedagogning innovatsion faoliyati xususiyatlari haqida umumiy ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, innovatsion kasbiy faoliyat, innovatsion ta'limiy faoliyat, ta'lim jarayon, nostandart, kreativ, pedagogik mahorat, kompetentlik

Kirish: Globallashib borayotgan bugungi kunda har bir soha va tizim faoliyatini innovatsion g'oyalar va texnologiyalar asosida olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, o'qituvchilarning kreativ fikrashi va yangicha pedagogik texnologiyalarni qo'llash qobiliyatlari ularning kasbiy mahoratini oshirishga xizmat qiladi. Maqlada nostandart yondashuvning mohiyati, innovatsion faoliyatning asosiy tamoyillari, shuningdek, o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayonida interfaol metodlar va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari yoritiladi. Zamonaviy ta'limda kreativ yondashuv asosida o'qituvchi tayyorlashning samarali usullari va muammolar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar beriladi. Shu jihatdan mavzuga kirishishdan oldin «innovatsiya» so'zining ma'nosiga biroz to'xtalishni lozim topdik. Innovatsiya tushunchasi (lotincha novus yangi) tadqiqotlarda va ilmiy ishlarda qo'llanila boshlagan. Avval u alohida elementlarni bir sohadan boshqa sohaga kiritishni ifodalagan. Texnikaviy yangiliklar kiritish qonuniyatlarini o'rganib firmalar foya olish uchun «innovatsion siyosatni» butun bir tizim sifatida o'zlashtirishdi. Mazkur faoliyat jamiyat hayotining ixtiyoriy bo'g'inini yangilash bo'yicha umumiy belgilarga, qonuniyatlar, yangilik kiritish mexanizmiga ega. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayonda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Interfaol usullar ta'lim jarayonida qatnashayotgan har bir o'quvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi.

Asosiy qism: Pedagogik innovatsiyalarning mazmuni, uni qo'llash metodlarini bo'lajak pedagoglar tajribasiga singdirish muhim ahamiyatga ega. Ta'lim muassasasi hayotiga pedagogik innovatsiyalarni keng ko'lamma olib kirish uchun unda yangilik muhitini yaratish, muayyan axloqiy psixologik holatni shakllantirish, tashkiliy, metodik, psixologik xarakterdagi choratadbirlarni qo'llash talab etiladi. Shu maqsadda bo'lajak pedagoglarning kreativ funksiyalarini rivojlantirish, ularni pedagogik innovatsiyalar bilan izchil qurollantirib borish, innovatsion usullarni tahlil va tatbiq qilishga o'rgatish vazifasini qo'yish lozim.

Ta'lim-tarbiya tizimidagi islohotlar doirasida pedagogika fanida ta'lim tizimidagi yangilik masalalari muttasil mutaxassislardan o'rganilib kelinmoqda. Biroq, ijtimoiy-pedagogik yangiliklar mintaqaviy ta'lim tizimini rivojlantirish omili sifatida, bir tomonidan, nisbatan yaqinda tez rivojlanayotgan ijtimoiy pedagogika fan va amaliy faoliyat sohasi sifatida nisbatan yaqinda paydo bo'lganligi sababli, boshqa tomonidan, ta'limni markazsizlashtirish va mintaqalashtirishning ijtimoiy tendensiyasining nisbiy yangiligi bilan bog'liq

Ta'kidlash lozimki, faqat ta'lim, uning muhim bo'lagi hisoblangan oliv ta'lim jamiyatning turli rivojlanish bosqichlariga shaxsning moslashuvchanlik imkoniyatlarini ta'minlaydi. Yangi

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

avlodni o'qitish va tarbiyalash natijasida yoshlarning, bo'lajak mutaxassislarning dunyoqarashini, madaniyatini, kasbiy bilimlarini shakllantiradi va ijtimoiy rivojlanishga oid yo'nalishlar vujudga keladi. Ushbu omillar oliy ta'limni yangi taraqqiyot bosqichida jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi faktor sifatida ilmiy falsafiy jihatdan chuqr o'rganishni, tadqiq etishni taqozo qiladi.

Bo'lajak mutaxassis pedagoglarning asosiy vazifasi – talabalarning har tomonlama rivojlanishi uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratib berish hisoblanadi. Talabaning kreativligini rivojlantirish va innovatsiyalarni yaratishga yo'naltirish, muammoli faoliyat turlarini tahlil qilish, muammolarni mustaqil anglash, o'z imkoniyatlarini rivojlantirishga sarflash – kreativ o'qitishning maqsadi hisoblanadi va aynan kreativ o'qitishga bo'lgan ehtiyojni talab qiladi. Shunday qilib, talabalarning kreativ kompetentligini va pedagogik mahoratini rivojlantirish, shuningdek, ularning ijodiy fikrlashini kreativ o'qitish metodlari yordamida takomillashtirishdir.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, bo'lajak pedagoglarni nostandard yondashuv asosida tayyorlashda duch kelinadigan muammolar ham mavjud. Ulardan biri – an'anaviy ta'lim tizimining barqarorligi va unga yangiliklarni kiritishdagi qiyinchiliklardir. Ko'pgina ta'lim muassasalarida o'qitish usullari hali ham klassik yondashuvlarga asoslangan bo'lib, ularda ijodiy tafakkurni rivojlantirishga yetarli e'tibor qaratilmaydi. Shuningdek, o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida nazariy bilimlarga haddan tashqari urg'u berilishi amaliy ko'nikmalarining ortda qolishiga olib kelishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak pedagoglarni innovatsion faoliyatga tayyorlash faqat ularning bilimlarini oshirish bilan cheklanmaydi. Bu jarayon ularning shaxsiy yondashuvlarini shakllantirish, kreativ tafakkurini rivojlantirish va o'z pedagogik faoliyatiga ijodiy yondashuvni joriy etish imkoniyatlarini yaratishni talab qiladi. Faqat shunda biz o'zgaruvchan jamiyat ehtiyojlariga mos keladigan, innovatsion ta'lim metodlarini qo'llay oladigan zamonaviy pedagoglarni tayyorlay olamiz.

Xulosa: Pedagogning innovatsion ta'limi faoliyatga to'laqonli tayyorlashdan maqsad - ularning kreativligini, yangilikka intiluvchanligini, muntazam ilmiy izlanish va mustaqil o'z ustida ishlash ko'nikmasi va malakasini shakllantirish, yangi ta'limi texnologiyalar, interfaol metodlardan foydalanib, mashq'ulot va undan tashqari ishlarni o'tkazish malakasini takomillashtirish pedagogik texnologiyalardan o'rini foydalanishga o'rgatishdan iborat. Shunday ekan, innovatsion faoliyat - bu ilmiy izlanishlar, yangiliklar, loyihamar yaratish, tajriba - sinov ishlari olib borish yoki pedagogik texnologiyalarga tayangan holda yangi texnologik jarayon yoki yangi takomillashtirilgan loyihamar yaratishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Olimov, T. H. (2019). SPIRITUAL AND MORAL ASPECTS OF THE FORMATION OF CIVIL CULTURE IN FUTURE SPECIALISTS OF HIGHER EDUCATION. *Theoretical & Applied Science*, (12), 662-665.
2. Olimov, T. H. (2020). The image of a modern teacher in the formation of civic culture among future highly educated specialists. *Pedagogical skill-Bukhara*, 5.
3. Olimov, T. H. (2019). Development issues of civil society and culture in the work of Eastern thinkers. *Pedagogical skill-Bukhara*, 2.
4. Olimov, T. H. (2016). Formation of self-awareness in youth. *Social and humanitarian sciences in the educational system.-Tashkent*, 4.
5. Olimov, T. (2020). Bo'lajak oliy ma'lumotli mutaxasislarda fuqarolik madaniyatini shakllantirishning ayrim yo'nalishlari. *FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI*, 1(1), 20-27.

6. Olimov, T. The role of national spirituality and values in the development of civil culture in future specialists with higher education.
7. Рамазонова, С. С., & Корёгдиев, З. О. (2023). XALQ PEDAGOGIKASI TUSHUNCHASINING TAHLILI VA UNING MANBAALAR: Ramazonova Salomat Saidovna Osiyo xalqaro universiteti magistranti, Qoryog'diev Zufar Oxunjonovich Ilmiy rahbar. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (8), 198-202.
8. Saidovna, R. S. (2023). YOSHLARNI MILLIY QADRIYATLAR VA URF-ODATLAR ASOSIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA OILA-TA'LIM MUASSASASI VA MAHALLA HAMKORLIGINING AHAMIYATI. *Science Promotion*, 4(1), 279-287.
9. Saidovna, R. S. (2023). XALQ PEDAGOGIKASINING SHAKLLANISHIDA O'RTA OSIYO BUYUK MUTAFAKKIRLARI PEDAGOGIK G'OYALARINING O'RNI. *Science Promotion*, 4(1), 288-294
10. Saidovna, R. S. (2025). O'SMIRLIK DAVRIDA KIMLIKNI SHAKLLANTIRISH. The latest news and research in education, 2(1), 114-119.
11. Saidovna, R. S. (2025). YOSHLIK VA RUHIY SOG'LIQ. The latest news and research in education, 2(1), 77-82.
12. Saidovna, R. S. (2025). O'SMIRLIKDAGI STRESS VA UNING PSIXOLOGIK TA'SIRI. The latest news and research in education, 2(1), 83-88.
13. Saidovna, R. S. (2025). IJTIMOIY O'ZARO TA'SIR VA TENGDOSHLAR ROLI. The latest news and research in education, 2(1), 89-94.
14. Saidovna, R. S. (2025). YOSH DAVRLARDA XULQ-ATVOR VA O'ZGARISHLAR. The latest news and research in education, 2(1), 70-76.
15. Saidovna, R. S. (2025). BOLALIK VA O'SMIRLIKDA O'ZLIKNI ANGLASH. The latest news and research in education, 2(1), 101-106.
16. Saidovna, R. S. (2025). EMOTSIONAL RIVOJLANISH VA O'ZINI ANGLASH. The latest news and research in education, 2(1), 107-113
17. Saidovna, R. S. (2025). TA'LIM JARAYONIDA YOSHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. The latest news and research in education, 2(1), 95-100.
18. Saidovna R. S. YUQORI SINF O 'QUVCHILARIDA "TARBIYA" DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH TEXNOLOGIYALARI PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA //PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI. – 2025. – Т. 2. – №. 2. – С. 363-366.
19. Saidovna, R. S. (2025). XALQ O 'YINLARINING BOLANING RUHIY VA JISMONIY RIVOJLANISHIDAGI O 'RNI VA AHAMIYATI. Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology, 2(1), 66-72.
20. Saidovna, R. S. (2025). OILAVIY TARBIYADAGI XALQ PEDAGOGIKASIGA OID USULLAR VA ULARNING BUGUNGI KUN UCHUN DOLZARBLIGI. Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology, 2(1), 73-79.
21. Ramazonova Salomat Saidovna " YUQORI SINF O'QUVCHILARIDA TARBIYA DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI" OSIYO XALQARO UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI, Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2025-yil, 1-son, 69-73.